SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

## *№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-son (oktyabr, 2025). - 538 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Jahongirov Burxon*
O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI ........ 13-18

*Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li*
AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI ........ 19-23

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI ........ 24-28

*Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich*
FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA
DOIR QARASHLAR TAHLILI ........ 29-34

*Лукашова Наталья Михайловна*
ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА,
ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ ........ 35-40

*Asadova Ra'no Baymanovna*
1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK
VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI:
TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR ........ 41-44

*Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich*
ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI ........ 45-52

*Tursunov Farrux G'ulomovich*
QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI
O'ZGARISHLAR ........ 53-58

*Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna*
XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI
VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 59-63

*Муминов Азизбек*
ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ,
ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА ........ 64-69

*Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li*
YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY
RAMZ SIFATIDA ........ 70-74

*Tuyev Fazliddin Erkinovich*
BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY
ALOQALARI ........ 75-80

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli*
QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT
TARMOQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY ROLI:
TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR ........ 81-85

*Jumayeva Shohida Choriyevna*
SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR ........ 86-90

*Azatov Allayar*
RIVOJLANGAN O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA “XORAZM DENGIZI” TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR ........ 91-99

*Ro‘ziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LO‘LILARDA O‘ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI ........ 100-105

*Orunbayev Aslı*
IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G‘OYALARINING SHAKLLANISHI ........ 106-113

*Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich*
XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O‘RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR ........ 114-116

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abdujalilov Xojiakbar Abdujalil o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 117-122

*Bazarova Gulnora Gulamovna*
O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO‘LIDAGI RIVOJLANISH)........ 123-127

*Yadiyarova Shahnoza*
THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES ........ 128-135

*Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович*
НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ ........ 136-141

*Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna*
O‘RMON XO‘JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI ........ 142-146

*Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi*
TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO‘STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ........ 147-150

*Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi*
THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM ........ 151-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE ........ 155-158

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI ........ 159-165

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*
YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI ........ 166-170

*Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich*
AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA ........ 171-175

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ........ 176-179

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI ........ 180-185

*Shamsutdinova Nigina Karimovna*
ABU ALI IBN SINO IRFONIY QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA ........ 186-190

*Pardayeva Marhabo Davlatovna*
"ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI ........ 191-197

*Aripova Zulfiyaxon Solijonovna*
SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA ........ 198-203

*Muxtorova Tutixon*
ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI ........ 204-211

*Xakimov Abdulboqi*
YOSHLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI ........ 212-216

*Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich*
ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI ........ 217-224

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL ........ 225-229

*Бердалиева Севара Дамировна*
СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ........ 230-234

*Хушбоков Ойбек Уралович*
СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ........ 235-239

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 240-244

*Muxiddinova Xakimaxon G'ulomovna*
EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA ........ 245-250

*Zokirov Mirzo*
MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR ........ 251-255

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Joʻrayev Nabi Narziyevich*
OʻZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI ........ 256-262

*Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna*
PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH ........ 263-267

*Zaripova Matluba Kulfidinovna*
GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN ........ 268-271

*Sayipova Dilobar Raximovna*
ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI ........ 272-275

*Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi*
TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES ........ 276-281

*Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi*
TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATIONOF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES ........ 282-288

*Abdujalilova Ruxshona Abdugʻafforzoda*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI ........ 289-293

*Abduraximova Feruza Boxadirovna*
OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QOʻSHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI ........ 294-300

*Jalolova Feruza Normurodovna*
INGLIZ VA OʻZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 301-305

*Ahrorova Nigina Anvarovna*
MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI ........ 306-309

*Razikov Baxtiyor Kosimovich*
MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? OʻZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA ........ 310-314

*Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi*
GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 315-319

*Nazarova Sabrina Zafarjon qizi*
YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI ........ 320-323

*Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы*
ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ» ........ 324-326

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi*
HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI ........ 327-333

*Abdullayev Rustam Kaxramanovich*
JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI ........ 334-339

*Давронов Атобек Равшанович*
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ........ 340-349

*Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi*
O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV ........ 350-355

*Исламов Самандар Олимжон угли*
ПРАВАВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ........ 356-363

*Uteniyazov Keulimjay Kuanыshbayevich*
AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI ........ 364-370

*Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich*
ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR ........ 371-375

*Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev*
ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 376-380

*Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна*
ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА ........ 381-388

*Axmedov Dilshod Baxramovich*
MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI ........ 389-394

*Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li*
DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 395-401

*Bozorov Ulug'bek*
TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 402-407

*Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna*
O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI ........ 408-413

*Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna*
TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 414-420

*Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li*
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 421-428

*Salomov Xumoyun*
OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI ........ 429-433

*Kakhramonova Aziza*
THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE ........ 434-437

*Xoliqova Gavhar Ramazon qizi*
XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI ........ 438-444

*Sharipov Firdavs Xolnazarovich*
OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI ........ 445-450

*Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna*
PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE ........ 451-456

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 457-462

*Nabiullin Rishat Xismatullovich, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich*
XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH ........ 463-468

*Xudayberganov Otabek Erkinovich*
BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 469-474

*Nishonova Dilafruz*
O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ........ 475-480

*Davletyarova Laylo Baxodirovna*
YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI ........ 481-486

*Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich*
O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 487-493

*Шавилова Наталья Сергеевна*
ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ ........ 494-500

*Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi*
FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 501-508

*Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna*
ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 509-515

*Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi*
RAQAMLI MUHITDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI ........ 516-519

*Usmonqulov Jo‘rabek Erkin o‘g‘li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi*
TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 520-525

*Xayitova Dilovar Ismat qizi*
STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI ........ 526-532

*Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna*
THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS ........ 533-537

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 September 2025
**Accepted:** 1 October 2025
**Published:** 10 October 2025

*Article / Original Paper*

# WOMEN'S IMAGES ON GRECO-BACTRIAN COINS – AS RELIGIOUS AND POLITICAL SYMBOLS

**Suyarov Makhmudjon Sobirjon og'li**
History teacher at Secondary School No. 11 under the Kattakurgan City Department of Public Education, Samarkand Region
E-mail: suyarovmahmud2@gmail.com

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the meaning of female images depicted on the coins minted by the Greco-Bactrian kings. It is shown that, by applying various analytical methods, it is possible to determine whether the coins had political or religious significance. These coins, which exerted a considerable influence not only on the development of economic life but also on socio-cultural processes, are substantiated as an important material source for studying the history of the ancient period.

**Keywords:** Greco-Bactria, Hellenistic, Athena, Nike, Tyche, legitimization, dynasty, coin, queen, diplomacy.

# YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA

**Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li**
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri
VXTB tasarrufidagi 11-sonli IDUM tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Yunon-Baqtriya podsholari tomonidan zarb etilgan tangalardagi ayollar obrazining mazmun jihatidan tahliliga bag'ishlangan. Turli tahliliy usullar yordamida tangalarning siyosiy yoki diniy xarakterga ega ekanligini aniqlash mumkinligi ko'rsatib berilgan. Nafaqat iqtisodiy hayot rivojiga, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan mazkur tanga pullar qadimgi davr tarixini o'rganishda muhim moddiy manba ekanligi dalillangan.

**Kalit so'zlar:** Yunon-Baqtriya, ellinistik, Afina, Nika, Tixeya, legitimlashtirish, sulola, tanga, malika, diplomatiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N11

**Kirish**. O'zbekiston hududidagi ellinistik davr tarixiy jarayonlarini yoritishda Yunon-Baqtriya podsholigi ham muhim o'rin tutadi. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan davlat o'zining qariyb 120 yillik tarixi davomida qadimgi Sharq va yunon olami madaniyati, san'ati, davlat boshqaruvi xususiyatlari va diniy qarashlarining o'zaro uyg'unligini mujassamlashtirgan muhim tarixiy mamlakat hisoblanadi. Yunon-Baqtriya podsholigi tanga-pul tizimi esa ushbu tarixiy jarayonlaring bevosita dalili bo'lib, mazkur davr tarixi tahliliy manbasi sifatida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Tangalar faqatgina iqtisodiy hayotni ifodalabgina qolmasdan, balki siyosiy jarayonlarni, madaniy o'ziga xoslikni hamda hokimiyatni qonuniylashtirish (legitimatsiya) masalasini ham o'zida aks ettiradi. Ayniqsa tangalarda tasvirlangan ayollar faqatgina yunon ilohalarimi yoki mahalliy ayollar hamda sulola a'zolari ham tasvirlanganmi? Nega tasvirlangan? kabi jumboqlar ilmiy jamoatchilik qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu masalaga oydinlik kiritish lozimligini taqozo etadi.

Ushbu ilmiy tadqiqotning maqsadi Yunon-Baqtriya tangalariga bitilgan ayollar tasvirlarining umumiy tavsifi, ulardagi ayollar obrazining mazmuni, vazifalari tahlili, siyosiy va diniy belgilarni oʻzaro ajratish mezonlari, xarakterini aniqlashtirish, ushbu podsholik tangalarini boshqa ellinistik davlatlar hukmdorlari tangalari bilan solishtirish, ayol obrazi orqali boshqaruvni qonuniylashtirish va diniy targʻibot maqsadlarini ochib berish hisoblanadi. Ushbu maqolada ayollar timsolining tangalardagi siyosiy va diniy mazmuni birinchi marta oʻzaro qiyosiy tahlil asosida koʻrib chiqildi. Shu orqali Yunon-Baqtriya madaniyatining diniy va siyosiy jihatdan ahamiyatga ega ekanligi va oʻzaro uygʻunligi masalasi ochib berilgan. Numizmatik tahlil – tangalardagi yozuvlar, ikonografiya, ya’ni tangalardagi belgilar, ramzlar, obrazlarni ma’nosini oʻrganuvchi soha yutuqlari, san’at asarlaridagi belgilar tizimini tahlil qiluvchi, mazmun-ma’nosini aniqlovchi semiotik yondashuv, komparativ tahlil, ya’ni Yunon-Baqtriya tangalarini boshqa antik-ellin davlatlardagi shunga oʻxshash san’at asarlari bilan solishtirish usullarini amaliyotda qoʻllash mavzuni chuqur oʻrganish jarayonida maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Arxeolog olimlarning izlanishlari natijasida qadimgi davr Yunon-Baqtriya podsholigiga oid bir qator tanga-pul namunalari topib oʻrganilgan. Jumladan, ular orasida mahalliy hamda yunon iloha, ma’budalarining tasvirlarini ham uchratishimiz mumkin. Yunon ilohalaridan Afina, Nika va Tixe kabilarining tasvirlari topilganligi ma’lum [4; 570–579-p.]. Ba’zi tangalarda ilohalarning turli harbiy qurollar bilan birgalikda (masalan, iloha Afina dubulgʻa kiygan holda) yoki hayvonlar koʻrinishida (Nika – gʻalaba ilohasi qush koʻrinishida) ifodalanganligining guvohi boʻlamiz.



Qadimiy Yunonistonning Korinf shahrida miloddan avvalgi IV asrda [2; 22 p.] zarb etilgan shu kabi tangalar keyinchalik Yunon-Baqtriya hukmdorlari tomonidan oʻxshash tarzda muomalaga chiqarilgan.

Yunon-Baqtriya podsholari tomonidan zarb etilgan tangalar oʻzining murakkab tuzilishi, bir vaqtning oʻzida bir qancha tasvirlarni ifodalashga urinilganligi bilan ajralib turadi. Koʻplab tangalarda ayollarning tasvirlari tanga-pulning orqa tomonida tasvirlangan. Eng koʻp uchraydigan diniy obrazlardan biri yunon mifologiyasidagi oliy xudo Zevsning qizi – iloha Afina tasviridir. U jangari ayol sifatida talqin etilganligi tufayli koʻpincha harbiy qurollar jumladan, nayza va qalqon (Meduzaning boshi tasvirlangan, afsonaga koʻra, ushbu Meduza Gargona Afinaga Persey tomonidan sovgʻa qilingan) tutgan holda tasvirlangan. [3; 3-5 p.] Afina tasvirlari bejizga Yunon-Baqtriya podsholari tangalarida tez-tez uchramaydi. U Yunon-Baqtriya podsholarining homiy ilohasi sifatida qabul qilingan. Bunga sabab sifatida uning jasurlik, donolik va davlat hokimiyat timsoli ekanligi koʻrsatiladi. Xususan, Menandr I Soter (taxminan mil. avv. 155–130) tangalarining old qismida hukmdor, orqa qismida esa Afina jangovar qiyofada tasvirlangan.



Bu obraz tangaga podsho hokimiyatini qonuniylashtirish va gʻalaba timsoli sifatida kiritilgan. Tabiiyki, oliy xudoning eng yaqin qarindoshlaridan biri boʻlgan, bundan tashqari jangari maʼbuda boʻlmish Afina qirolning diniy homiysi boʻlishga eng munosib nomzodlardan bir edi. Bu podsho fuqarolarining hukmdorga itoatkorligini oshiradigan omil hisoblanadi.

Afinadan tashqari tanga pullarda qadimiy yunon mifologiyasining gʻalaba ilohasi hisoblangan Nikaning tasvirlari ham uchrab turadi. Nika koʻp oʻrinlarda podshoning gʻalabalarini eʼtirof etuvchi ramziy obraz boʻlib xizmat qilgan. Miloddan avvalgi 171-160-yillarda hukmronlik qilgan Yunon-Baqtriya podshosi Antimax II tangalarining old tomonidan Nika tasvirlangan boʻlib, tanga-pulning orqa tomonida qirolning oʻzi tasvirlangan. Shu tufayli hukmdorga nisbatan Nikofor yaʼni “gʻalabali” laqabi ham ishlatilgan[6]. Shuningdek, baxt va farovonlik ilohasi Tixe (Tixeya) tasvirlari ham uchraydi. U odatda boylik timsoli Cornucopia yaʼni toʻkinlik shoxi bilan tasvirlanadi [1, 2-3 p]. Bu esa mamlakat moddiy qudratini aks ettiruvchi diniy-iqtisodiy ishoradir. Tixeya shuningdek yunon mifologiyasida shaharlar homiysi sifatida ham mashhur boʻlgan.

Ayollar siyosiy hayotni namoyish etish maqsadida ham tasvirlangan. Xususan, sulolaning ayol vakillari tangalarda uchraydi. Bu esa ularning davlat boshqaruvida qisman oʻrni, roli mavjudligini bildiradi. Ularning davlat hokimiyatiga taʼsiri, ayrim hollarda esa merosxoʻrlikka daʼvogarlik holatlari hamda boshqaruvni legitimlashtirish yaʼni qununiylashtirish maqsadida ham shunday tangalar zarb etilgan. Ayollar obrazi odatda yunon mifologiyasi ilohalarini oʻzida aks ettirsa-da, baʼzan ular nafaqat diniy balki, siyosiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega boʻladi. Fikrimiz isboti oʻlaroq, Yunon-Baqtriya podsholigida miloddan avvalgi II asr boshlarida hukmronlik qilgan podshohlarning tangalarida ham ayollar tasviri uchraydi. Uning tangalarida yunoncha yozuvlar, turli rasmlar va hatto buddaviylik timsollarini ham koʻrishimiz mumkin. Ushbu tangalarda iloha Artemida tasvirlanganligi taxmin qilinadi[5]. Ular oʻziga xos soch turmagi va qimmatbaho zeb-ziynatlar bilan tasvirlangan. Shu sababli olimlar tomonidan ushbu tasvirlar malika (qirolicha) yoki podshoning onasi ham boʻlishi mumkinligi tahmin qilinadi.

Ushbu tangalarni tadqiq qilish jarayonida yunon mifologiyasi va mahalliy zardushtiylik dining oʻzaro taʼsirlanganligining guvohi boʻlamiz. Jumladan, ayrim tangalarda yuz tuzilishi

jihatidan yunon xudo va ma'budalariga oʻxshash tarzda, biroq kiyimlari mahalliy an'anaga koʻra boʻlganligining guvohi boʻlamiz. Bu esa oʻz navbatida Oʻrta Osiyoda qadimgi davr ellinizm madaniyati rivojlanganligining dalilidir. Tangalardagi bu kabi tasvirlar nafaqat podsho hokimiyatini ilohiylashtirish, balki urushlardagi zafarli gʻalabalarni e'tirof etish hamda fuqaro farovonligini ta'minlanganlik darajasini koʻrsatishga xizmat qilgan.

Ayollarni ba'zida iloha koʻrinishida ba'zan esa sulola vakillari orasidan tanlab olinib, tangalarda tasvirlanishi oʻziga xos siyosiy xarakterga ega hisoblanadi. Bu holat ularning davlat boshqaruvidagi sezilarli roli mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Ular hukmdor sifatida davlatni boshqarmasalar-da, boshqaruv ishlariga oʻzlarini ta'sirini koʻrsata olganlar. Tangalarda shohning onasi, qizi, rafiqasi va ayrim hollarda muhim siyosiy ittifoq doirasidagi malikalar ham tasvirlanganligi taxmin qilinadi. Bu orqali hukmdor oʻzining sulolaviy nasabini mustahkamlashga uringanligi ya'ni hokimiyatni legitimlashtirishga harakat qilganligi koʻzga tashlanadi. Ayrim hollarda oʻzaro ziddiyat mavjud boʻlgan davlatlar oʻrtasidagi urush harakatlarini toʻxtatish, sulh tuzish uchun maqsadli nikohlar tuzilgan va shu yoʻl bilan tinchlik ta'minlangan. Bu kabi vaziyatlarda ittifoq ramzi sifatida nafaqat bir davlat shohi, shahzodasi, balki ikkinchi ittifoqchi davlat malikasi ham tangalarda tasvirlanganligi holatlari uchraydi. Bu davlatlarning teng huquqda ittifoq tuzganliklari belgisi sifatida ham qaraladi. Aynan ushbu usul xalqaro diplomatiyaning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Tangalarda mazkur holatning tasvirlanishi esa davlatlar oʻrtasidagi doʻstona munosabatlarning xalqaro aloqalarda tasdiqlanganligi belgisidir.

Qadimgi ellin davlatlarida ayollarni tangalarda tasvirlanishining boshqa sabablaridan biri siyosiy qonuniylikni ta'minlash hisoblangan. Bunday holatda sulolada boshqaruvga layoqatli erkak voris boʻlmagan vaziyatda boshqaruv ishlari vafot etgan hukmdorning qizidan boʻlgan avlodlari orqali amalga oshiriladi. Bunda sulola ayollarining tasvirlanishi meros huquqi va ayol kishi orqali oʻtgan sulolaviy davomiylikni koʻrsatish maqsadlari koʻzlangan. Bu strategiya ba'zida sulolaviy qonuniylikni ta'minlagan. Chunki joriy sulola raqiblari tomonidan erkak taxt voris mavjud emasligi vaji koʻrsatilib, boshqa sulola hokimiyat tepasiga kelishi fursati yetganligi da'vo qilinishi mumkin edi. Shunday holatlarni oldini olish maqsadida, sulola hukmronlik davrini davom ettirish uchun ayollar tasviri davlat rahbarlari tomonidan qoʻllanilgan. Ayniqsa, tangalarda tasvirlangan ayolning sulola vakillari orasida nufuzi baland boʻlsa, koʻzlangan maqsad oʻzini koʻproq oqlagan. Antik-ellin davlatlaridan biri boʻlmish Ptolameylar saltanatida Kleopatra obrazining tasvirlanganligi fikrimizning dalilidir.

**Xulosa.** Qadimiy Yunon-Baqtriya saltanatida ayollarning tanga pullarda tasvirlanishi ham diniy ham siyosiy maqsadlarni koʻzlagan holda tasvirlangan. Bu esa oʻz navbatida diniy-siyosiy funksiyalarning oʻzaro sintezlashganligini koʻrsatib beradi. Ushbu murakkab ramzlar tizimi ham madaniy-diniy, ham ijtimoiy ahamiyati jihatdan muhim hisoblanadi. Tangalarning oʻziga xos jihatlari ham koʻzga tashlangan boʻlib, ularda klassik yunon ilohalari real inson qiyofasida tasvirlangan. Bu holat ayollarning ham diniy ham dunyoviy jihatdan hokimiyat ishlaridagi oʻrnini bildiradi. Hukmdorlar iloha Nikani tasvirlash orqali oʻz harbiy yutuqlarini koʻz-koʻz qilishga uringan boʻlsa, Tixeya ilohasidan foydalanish orqali hokimiyat barqarorligini koʻrsatmoqchi boʻlishgan. Harbiy jasorat va donishmandlik ramzi boʻlgan Afina esa podshohning oʻz hokimiyatini asoslash vositalaridan biriga aylangan. Ba'zan tangalardagi real shaxslar diniy jihatlar bilan boyitilib, ideal shaxsni yaratishga urinilgan. Ramziy gibridlik esa hukmdor tomonidan hokimiyatning gʻoyaviy ikki tomonlama ifodalash istagini bildiradi. Ba'zan

ilohiy himoyadan umid qilgan davlat rahbarlari shu kabi usulda tangalarni zarb ettirganlar. Bu hukmdorning ilohiy qoʻllovga ega ekanligini ifodalabgina qolmasdan, davlat hokimiyatining muqaddaslashtiruvchi gʻoyalarini ham targʻib qilgan. Yunon-Baqtriya tangalari orqali erkaklardan farqli oʻlaroq ayol obrazining oʻziga xos jihatlari, ularning mahalliy va ellinistik tasvir uslublari bilan uygʻunligi, hududdagi madaniy sintezni namoyon etadi. Ushbu tangalar nafaqat estetik tasvir, balki siyosiy-mafkuraviy munosabatlarni oʻrganishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Nidhi Patel. Looking at the transition of Goddess Tyche to Ardoksho to Lakshmi with respect to coins. 2022, Virtual World Conference on the "Greeks, Kushans, Huns and Gurjars: Their Cultural Legacy in the Indian Subcontinent.
2. Prepared for Freshman Seminar by J. Edward Taylor. Gods, Goddesses and Flying Horses: A History of Coins in Ancient Greece. Last updated January 2016.
3. Roland Keates. The Head of Medusa In Paintings and Symbols. Mythology, Symbolism (Art History), Greek mythology, University of Derby, 2013.
4. Suchandra Ghosh. Representation of Greek gods/goddesses in Greeco-Bactrian and Indo-Greek visual culture. Chapter 27. University of Hyderabad. 2020.
5. https://numismatics.org/bigr/id/bigr.artemidorus.2
6. https://www.britishmuseum.org/collection/object/C_1844-0909-2

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati



**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).